

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar oyi uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2023- yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 68,6 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 28,1 mln AQSH dollariga yoki 69,2 %ga ko'paygan.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar, mln AQSh dollari)



	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	40,6	68,6	169,2%	X
Eksport tovarlar	17,5	19,7	112,8%	100,0
Eksport xizmatlar	1,5	1,0	65,1	5,1
Import tovarlar	23,0	48,9	2,1 m.	100,0
Import xizmatlar	23,0	48,9	2,1 m.	100,0
Saldo	-5,5	-29,1	X	X

Eksport hajmi 19,7 mln AQSH dollari (12,8 %ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 48,9 mln AQSH dollarini (2,1 martaga oshgan) tashkil etdi. Hisobot davrida 295,1 mln AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosiga statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR  
(2023-yil yanvar, mln AQSH dollari, ulushi %da)**



Braziliya

TSA – 20,3  
Eksport – 0,0  
Import – 20,3



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 9,0  
Eksport – 5,0  
Import – 4,0



Turkiya

TSA – 8,0  
Eksport – 1,3  
Import – 6,7



Pokiston

TSA – 7,0  
Eksport – 7,0  
Import – 0,0



XXR

TSA – 5,1  
Eksport – 0,6  
Import – 4,5



Germaniya

TSA – 4,0  
Eksport – 0,0  
Import – 4,0



Qozog'iston

TSA – 3,0  
Eksport – 0,8  
Import – 2,2



Qirg'iziston

TSA – 2,6  
Eksport – 2,6  
Import – 0,0



Belarus Respubliasi

TSA – 1,6  
Eksport – 0,1  
Import – 1,5



Eron

TSA – 1,4  
Eksport – 0,8  
Import – 0,6

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahoning 57 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (29,6 %), Rossiya Federatsiyasi (13,2 %), Turkiya (11,6 %), Pokiston (10,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,5 %), Germaniya (5,9 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI  
(yanvar, mln AQSH dollar)**


Davlat nomi	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Braziliya	14,6	0,0	20,3
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	14,6	0,0	20,3
Saldo	-14,6	0,0	-20,3
Rossiya Federatsiyasi	5,0	8,5	9,0
Eksport	2,6	6,0	5,0
Import	2,4	2,5	4,0
Saldo	0,2	3,5	1,0
Turkiya	3,2	13,1	8,0
Eksport	2,1	2,4	1,3
Import	1,1	10,6	6,7
Saldo	1,0	-8,2	-5,4
Pokiston	0,4	0,8	7,0
Eksport	0,2	0,8	7,0

<b>Davlat nomi</b>	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>	<b>2023- yil</b>
Import	0,2	0,0	0,0
Saldo	0,0	0,8	7,0
<b>XXR</b>	<b>19,7</b>	<b>4,6</b>	<b>5,1</b>
Eksport	2,5	0,9	0,6
Import	17,3	3,7	4,5
Saldo	-14,8	-2,8	-3,9
<b>Germaniya</b>	<b>2,0</b>	<b>1,2</b>	<b>4,0</b>
Eksport	0,1	0,4	0,0
Import	1,9	0,8	4,0
Saldo	-1,8	-0,4	-4,0
<b>Qozog'iston</b>	<b>1,2</b>	<b>4,5</b>	<b>3,0</b>
Eksport	0,6	2,3	0,8
Import	0,5	2,2	2,2
Saldo	0,1	0,1	-1,4
<b>Qirg'iziston</b>	<b>2,2</b>	<b>1,2</b>	<b>2,6</b>
Eksport	2,2	1,0	2,6
Import	0,0	0,0	0,0
Saldo	2,2	1,2	2,6
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>0,1</b>	<b>0,4</b>	<b>1,6</b>
Eksport	0,0	0,4	0,1
Import	0,1	0,0	1,5
Saldo	-0,1	0,4	-1,4
<b>Eron</b>	<b>0,4</b>	<b>0,6</b>	<b>1,4</b>
Eksport	0,3	0,5	0,8
Import	0,1	0,1	0,6
Saldo	0,2	0,5	0,2



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH  
MAMLAKLATLARI VA BOSHQA XORIIJY DAVLATLARNING HAJMLARI  
DINAMIKASI**  
(yanvar, mln AQSH dollarri, ulushi, %da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023 - yilning yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,1 %ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2023 - yilning yanvar oyida 2022 – yilning yanvar oyiga nisbatan 2,1 martaga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 73,9 %ni tashkil etdi.

**XORAZM VILOYATINING EKSPORTI  
(2023- yil yanvar)**


Joriy yilning yanvar oyida viloyatning eksportyorlari soni 53 tani tashkil etib, ular tomonidan 19,7 mln AQSH dollarri (qimmatbaho metallar

eksportidan tashqari) qiymatidagi (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 12,8 %ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 94,9 %ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (43,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (32,3 %), turli xil tayyor buyumlar (12,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar, ulushi, % da)**



- █ Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 42,1
- █ Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- █ Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari – 2,5 %
- █ Mineral yoqilg‘i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 2,2 %
- █ Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,0 %

- █ Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 0,2 %
- █ Sanoat tovarlari – 37,0 %
- █ Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,0 %
- █ Turli xil tayyor buyumlar – 10,9 %
- █ Xizmatlar – 5,1 %



**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln.AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami eksport</b>	<b>19,7</b>	<b>112,8</b>	<b>100,0</b>	<b>9,1</b>	<b>83,7</b>	<b>100,0</b>	<b>10,6</b>	<b>160,6</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,3	2,0 m.	42,1	1,3	48,3	14,4	7,0	5,0 m.	65,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,5	53,7	2,5	0,0	5,9	0,1	0,5	68,7	4,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,4	159,5	2,2	0,3	2,4 m.	2,9	0,2	104,5	1,6
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	24,2 m.	0,2	0,0	787,7 m.	0,4	0,0	6,4 m.	0,1
Sanoat tovarlari	7,3	77,3	37,0	4,8	88,0	52,1	2,6	63,0	24,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	0,0	18,1	0,0	0,0	18,1	0,0	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	2,2	180,0	10,9	2,1	179,2	23,5	0,1	797,2 m.	0,1
Xizmatlar	1,0	65,1	5,1	0,6	48,5	6,6	0,4	129,4	3,9

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmogda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat tovarlari va turli hil tayyor buyumlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2023- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan, mashinalar va transport asbob-uskunalarini, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar eksportida pasayish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(yanvar, %da)**

XSST tarkibi	2021- yil	2022- yil	2023- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27,8	23,5	42,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	4,6	5,2	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	-	1,5	2,2
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	0,0	0,2
Sanoat tovarlari	57,5	54,0	37,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,5	0,1	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	6,5	6,8	10,9
Xizmatlar	3,0	8,9	5,1


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR  
EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI  
(yanvar, mln AQSH dollar, ulushi %da)

2023- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Pokiston (eksport umumiy hajmining 35,6 %), Rossiya Federatsiyasi (25,5 %), Qirg'iziston (12,8 %), Turkiya (6,4 %), Eron (4,2 %), Qozog'iston (4,0%) va Xitoy Xalq Respublikasi (3,2 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 91,7 foizni tashkil etmoqda.





**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2023- yil yanvar, %da)**



2023- yilning yanvar oyida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Pokiston yetakchi mavqeyga ega bo'gan bo'lsa, keyingi o'rnlarda Rossiya Federatsiyasi va Qirg'iziston o'rni egallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(yanvar)**

Davlatlar	Min AQSH dollarri		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Pokiston	0,8	7,0	3,8 m.	8,9 m.	6	1
Rossiya Federatsiyasi	6,0	5,0	2,3 m.	83,4	1	2

Davlatlar	Mln AQSH dollarri		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Qirg'iziston	1,2	2,5	53,9	2,1 m.	4	3
Turkiya	2,4	1,3	117,2	52,2	2	4
Eron	0,5	0,8	187,5	152,7	4	5
Qozog'iston	2,3	0,8	3,6 m.	34,0	3	6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar, mln AQSH dollarri)**


XSST tarkibi	Pokiston		Rossiya		Qirg'iziston		Turkiya	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Jami eksport	<b>0,8</b>	<b>7,0</b>	<b>6,0</b>	<b>5,0</b>	<b>1,2</b>	<b>2,5</b>	<b>2,4</b>	<b>1,3</b>

Shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,6	6,9	0,7	1,0	-	0,0	-	-
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,1	0,1	0,1	0,0	-	-	0,1	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,1	0,3	-	-	-	0,0

XSSТ tarkibi	Pokiston		Rossiya		Qирғизистон		Turkiya	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Hayvon va o'simlik lar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	-	-	-	-	-	0,0	-
Sanoat tovarlari	0,1	-	4,1	3,1	0,3	1,0	2,4	1,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	0,0	0,4	0,9	1,5	-	0,0
Xizmatlar	0,0	0,1	1,0	0,3	-	0,0	0,0	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 1,0 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 4,9 %ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 65,1 %ni tashkil qildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (51,3 %), transport (29,0%) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (19,7%) hissasiga to'g'ri kelgan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 8,3 mln dollar qiymatli yoki 3,3 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 7,7 mln AQSH dollariga teng 2,8 ming tonna sabzavot, shuningdek, 0,1 mln AQSH dollari qiymatidagi 0,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 42,2 %ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI  
(2023-yil yanvar, mln AQSH dollari)

Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (83,3%), Rossiya Federatsiyasi (12,0 %), Qozog'iston (3,2%) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


### XORAZM VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar)

2023- yilning yanvar oyida viloyatning import hajmi 48,9 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 2,1 martaga oshdi.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (42,7%), mashinalar va transport asbob-uskunalar (34,6 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari 6,3 %), sanoat tovarlari (5,3 %) va turli xil tayyor buyumlar (1,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,8 mln AQSH dollariga ko'paygan va 48,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln AQSh dollarli	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiylajmga nisbatan, %da	mln AQSh dollarli	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiylajmga nisbatan, %da	mln AQSh dollarli	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiylajmga nisbatan, %da
<b>Jami import</b>	<b>48,9</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>100,0</b>	<b>8,8</b>	<b>161,5</b>	<b>100,0</b>	<b>40,0</b>	<b>227,7</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,9	49,3 m.	42,7	0,4	143,7	4,4	20,5	131,5 m.	51,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,1	2,1 m.	6,3	2,8	2,1 m.	31,2	0,3	2,1 m.	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	1,0	5,7 m.	1,9	0,4	3,1 m.	4,8	0,5	16,0 m.	1,3
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	-	1,2	0,6	-	6,8	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,1	102,8	6,4	2,3	90,4	26,4	0,8	172,3	2,0

Sanoat tovarlari	2,6	107,9	5,3	1,0	150,0	11,7	1,6	91,2	3,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	16,9	116,0	34,6	1,1	4,2 m.	12,6	15,8	110,4	39,4
Turli xil tayyor buyumlar	0,7	75,3	1,5	0,2	92,5	2,1	0,5	70,6	1,3



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(2023- yil yanvar, ulushi, %da)**

XSST tarkibi	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0


shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35,5	1,8	42,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,0	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,7	6,4	6,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	1,1	0,7	1,9
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	1,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,3	13,2	6,4

<b>XSST tarkibi</b>	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>	<b>2023- yil</b>
Sanoat tovarlari	2,9	10,5	5,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	39,1	63,2	34,6
Turli xil tayyor buyumlar	12,5	4,1	1,5



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN  
TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI  
(yanvar, *mln AQSH dollarri, ulushi %da*)**



2023- yil yanvar oyida import bo'yicha eng yuqori yettilalikda Braziliya, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Belarus Respublikasi o'rinn egalladi.




**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN  
AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(yanvar)**

Davlatlar	Min AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Braziliya	0,0	20,3	0,0	0,0	-	1
Turkiya	10,6	6,7	9,4 m.	63,0	1	2
Xitoy Xalq Respublikasi	3,7	4,5	21,3	122,1	2	3
Germaniya	0,8	4,0	41,5	5,1 m.	5	4
Rossiya Federatsiyasi	2,5	4,0	102,7	161,2	3	5
Qozog'iston	2,2	2,2	4,3 m.	100,2	4	6
Belarus Respublikasi	0,0	1,5	26,3	39,7 m.	19	7



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2023- yil yanvar)**



2023- yilning yanvar oyida viloyatga 34 ta xorijiy davlatdan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Braziliya, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Belarus Respublikasi hamkor davlatlaridan jami import hajmi 43,3 mln AQSH dollariga teng. Bu esa umumiyl import hajmining 88,6 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-09